

JAMIYAT SOTSIO-MADANIY MUHITIDA MADANIYATLARARO MULOQOT MUAMMOLARINING NAMOYON BO'LIH XUSUSIYATLARI

Isomiddinova Iroda Umid qizi

O'zbekiston Milliy universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola jamiyatning sotsio-madaniy muhitida madaniyatlararo muloqot jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularning namoyon bo'lish xususiyatlari tahlil etilgan. Globalizatsiya sharoitida turli madaniy qatlamlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir kuchayib borayotgani xalqaro, etnik va ijtimoiy aloqalarda kommunikativ to'siqlar paydo bo'lishiga sabab bo'lishi, shuningdek, madaniy kompetensiya, bag'rikenglik, muloqot texnikalari va ijtimoiy integratsiya asosida ushbu muammolarni bartaraf etish yo'llarini yoritib beradi.

Kalit so'zlar: Madaniyatlararo muloqot, xalqaro muloqot, madaniy aloqa, akkulturatsiya modeli, salbiy yaqinlik, organic hamjihatlik.

ABSTRACT

This article analyzes the problems that arise in the process of intercultural dialogue in the socio-cultural environment of society and the features of their manifestation. In the context of globalization, the increasing interaction between different cultural layers leads to the emergence of communicative barriers in international, ethnic and social relations, and also sheds light on the ways to overcome these problems based on cultural competence, tolerance, communication techniques and social integration.

Keywords: Intercultural dialogue, international dialogue, cultural communication, acculturation model, negative affinity, organic cohesion.

KIRISH

Madaniyatlararo muloqot tushunchasi bugungi kunda turli ijtimoiy-gumanitar fan sohalarida tadbiq etiladi. Jumladan mazkur tushuncha va unga doir ko'plab masalalar madaniyatshunoslik, falsafa, tarix, madaniy antropologiya, sotsiologiya, siyosatshunoslik, san'atshunoslik singari ijtimoiy-gumanitar fan sohalar uchun tadqiqod predmeti vazifasini o'tay oladi. Shu ma'noda, madaniyatlararo muloqot sohalararo tadqiqot muammosi hisoblanadi. Uni tushuncha sifatida ta'riflash, tuzilmaviy elementlari, namoyon bo'lish shakllari, o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda turli sohalaridagi metodologik yondashuvlarga murojaat qilishga zarurat tug'iladi. Bunda ayniqsa, umumilmiy metodlarning zarurati yanada ortadi. Turli sohalar metodologik yondashuvlarini o'zaro muvofiqlashtirishda nazariy-

metodologik jihatdan sotsiologik umumlashmalarga zarurat seziladi. Ayniqsa, uning sotsio-madaniy xususiyatlarini aniqlashda ijtimoiy-falsafiy tahlilning ahamiyati katta. Bundan tashqari, madaniyatlararo muloqot haqidagi tasavvurlar shakllanishi va transformatsiyasini aniqlashda esa falsafiy-tarixiy metodning ahamiyati yanada ortadi. Taniqli faylasuf va antropolog M.Buber borliqni - "Dastlab munosabatlardan iborat bo'lgan", - deb ta'riflaydi¹. Darhaqiqat, insoniyat muayyan geografik makonni egallagan alohida, xilma-xil mahalliy jamoalar majmuasidan tashkil topgan bo'lib, ular o'rtasidagi o'zaro kommunikatsiyalarning tarixiy taraqqiyoti o'z navbatida jahon tarixini vujudga keltira borgan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu ma'nodagi kommunikatsiya nafaqat shunchaki aloqa, balki sinergetik effektlarni yuzaga keltiradigan olamlar o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirni ham anglatadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Xalqaro muloqot ko'p qirrali xarakter kasb etib, ular savdo, xalqaro siyosat singari ko'plab sohalarda amal qiladi. Uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy aspektlardan tashqari, (millatlararo nikohlar, xalqlar va irqalar aralashuvi) kabilarni nazarda tutuvchi demografik aspekti ham mavjud. Madaniyat sohasidagi xalqaro muloqot esa qadim zamonlardayoq o'rnatilib, to hozirgacha davom etayotgan, butun insoniyat tarixini qamrab oluvchi, milliy hamda jahon madaniyatining eng muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan madaniy aloqa va bog'lanishlar shaklida yuzaga keladi. Jahon madaniy aloqalari, bir tomondan, umumjahon tarixiy jarayonining barcha jihatlari hamda shakllari bilan uzviy bog'langan bo'lsa, boshqa tomondan, ular o'ziga xos sifat va xususiyatlarga ega. Ular kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining ajralmas qismi sifatida jahon madaniy aloqalarini yagona, ob'ektiv zaruriy va barqaror rivojlanuvchi jarayon ko'rinishida tasavvur qilish imkonini beruvchi o'z qonuniyatlariga ega. Uning ildizlari ilk lokal madaniyatlar paydo bo'lib, ular o'rtasida o'rnatilgan to bugungi kunga qadar davom etayotgan muloqot yuqori paleolit davriga borib taqaladi².

Kommunikatsiya, muloqot inson va insoniyat mavjudligining asosiy sharti hisoblanadi. O'zlarining ilk shakllanish bosqichlaridanoq inson guruhlar qabilalararo munosabatlarga kirishganlar. Shu tariqa umumjahon madaniyati o'zining lokal shakllari taraqqiyoti tufayli boy va rang-barang xarakter kasb etib borgan. Insonning ijtimoiy-madaniy tabiati, xususan, unga o'ziga o'xshaganlar bilan aloqaga kirishish, hayotiy tajribalari, his-tuyg'ulari, fikrlari bilan bo'lishish imkonini beruvchi madaniy

¹ Культурное пространство путешествий. 8-10 апреля 2013 г. Тезисы форума, СПб: Центр изучения культуры. 2013. -С-350.

² Кравченко А.И. Социология.- М.: «Логос» Екатеринбург, Деловая книга,2009. — С. 168.

fenomenlarni interiorizatsiyalash jarayonidagi o'z- o'zini takomillashtirish qobiliyatida uni madaniyatlararo ta'sirga undovchi turtki mavjud.

Ma'naviy ijod, shaxsiy yetuklik, yuqori darajadagi muloqot, ta'lim amaliyoti, jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi kabilar madaniyatlararo aloqalar va madaniyatlararo muloqot tufayli takomillashib bordi ³. Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, xalqaro madaniy aloqalar umumjahon tarixiy taraqqiyot jarayonining ajralmas qismi sanaladi. Ular madaniyatlarning sinteziga - tashqaridan kelgan ma'lum hodisalarning madaniy-retseptorlarini o'zlashtirish shaklida, ularning qayta ko'rib chiqilishi, yangi madaniy muhitga kiritilishi va boshqa madaniyatlar ta'siri ostida o'zlarinikini ishlab chiqish jarayoniga olib keladi.

Ijtimoiy-gumanitar fan sohalariga oid tadqiqodlarda "Madaniy aloqa" tushunchasining mohiyatini ochib berishga qaratilgan xilma-xil yondashuvlar mavjud bo'lib, uning aniq bir ma'noli ta'rifini uchratish qiyin⁴. Ko'pincha, odatda, madaniy aloqalar deganda san'at, adabiyot, fan hamda aksiologik sohalaridagi delegatsiyalar almashinuvi va shu boradagi hamkorlik tushuniladi. Agar madaniyat kategoriyasi keng ma'noda moddiy, ijtimoiy va ma'naviy shakllardagi o'z-o'zini rivojlantiruvchi tizim sifatida tushunilsa, xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalar turli sohalaridagi moddiy va ma'naviy madaniyat yutuqlarining almashinuvi, qadriyatlarning o'zaro muloqoti kabi xususiyatlarni qamrab oluvchi mazmunga ega tushuncha ekanligi ma'lum bo'ladi.

Turli madaniyatlar o'rtasidagi aloqalar subyekt-obyekt - monologik va subyekt-subyekt - dialogik tamoyil asosida qurilishi mumkin⁵. Birinchi holatdagi madaniyat, o'tmishdan yoki hozirgi kunda, foydali bo'lgan madaniyatning boshqa turiga mansubdir (oxirgi holat bu fath qilingan odamlarning ibodatxonasini otxonaga aylantirilishi, bronza haykallarini eritib qurol-aslahaga aylantirilishi yoki boshqa madaniyat yodgorliklarini to'g'ridan-to'g'ri yo'q qilish, masalan, Janubiy Amerikadagi konkistadorlarning harakatlari kabi), yoki kognitiv tarzda o'rganish mavzusiga oid bo'lishi mumkin.

Ikkinchi holatdagi madaniyatga teng huquqliligi, teng qiymatliligi, barcha farqlari bilan, qiziqarliligi, kerakliligi, istalganligi bilan, o'zining boshqalarga o'xshamasligi, o'ziga xosligi bilan munosabatda bo'lishdir"⁶. Ayni shu holatda, madaniyatlar o'rtasidagi muloqot deb ataladigan munosabatlar paydo bo'ladi.

³ Ценность. // Новейший философский словарь. - Мн.: Изд. В.М. Скакун, 2008. - С.798.

⁴ Кенжаева Д. Маданиятнинг тарбиявий функцияси ва унинг ижтимоий-фалсафий тахлили. Фалсафа фанлари номзоди дис автореф. - Т.: 1999. - В21.

⁵ В.То'rayev. Tanlangan asarlar: Jild II: Ijtimoiy falsafa, sotsiologiya, milliy g'oya va publitsistika. - T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutabxonasi nashriyoti, 2015. - B. 248-249.

⁶ Madrahimova F. Globallashuv va "ommaviy madaniyat". - Toshkent: Chashma print. 2013.-B. 180.

Shunday madaniyat turlari borki, ular boshqa madaniyatlar bilan muloqotni nihoyatda cheklaydi. Ular boshqa madaniyatlar bilan aloqa qilishni istamaydigan egosentrik, xudbin, yopiq fikrli madaniyatlar bo'lib, ular "nomukammal", "past", "madaniyatsiz" hisoblanadi. Dialogga bir madaniyatning "norasolik kompleksi" boshqasiga nisbatan ta'sir qiladi, bu o'z-o'zini tanib olishdan, o'zidan voz kechishga, boshqa madaniyatga ixtiyoriy ravishda bo'ysunishga olib keladi (anglomaniya, frankomiya, germanofillik yoki qadimiy davrga taqlid qilish, o'rta asrlarga o'xshashlik, zamonaviy davrda Yevropa madaniyatida uyg'onish davri kabi holatlar) Madaniyatlar o'rtasida muloqot har doim mavjud bo'lib kelgan. XX asrda madaniy aloqalarni rivojlantirish bilan birga u ikki tendensiya ziddiyatida ifoda topgan qarama-qarshilik xarakteriga ega bo'ldi. Bir tomondan, har bir xalqning madaniyati, o'zining ma'naviy noyobligini belgilab, o'z ijodiy kuch-qudrati va qobiliyatlarini ifodalaydigan, ayni paytda butun insoniyatning madaniy boyligi muloqot jarayonlari va texnologiyalarini jadal rivojlanishi bilan bir qatorda turmoqda. Turli xil shakllarga ega bo'lgan madaniyatlar muloqoti xalqlar o'rtasida o'zaro tushunishni ko'proq ta'minlaydi va ularning ma'naviy noyobligini ochib beradi.

Boshqa tomondan, XX asrda millatlararo urushlar va xalqaro to'qnashuvlarning asosiy sabablaridan biri xalqlarning madaniy farqlari va madaniy o'zaro tushunish va muloqot qila olmaslik bo'ldi. Zamonaviy xalqaro madaniyatlararo aloqalarining tabiatini global mintaqaviy tizimlar - Shimoliy-Janub, Sharq-G'arb, G'arbnig ko'p bosqichli o'zaro ta'siri aniqlaydi. Aloqaning turiga qarab, muloqot turli ssenariylarga (modellarga) muvofiq amalga oshirilishi mumkin. Madaniyatlararo o'zaro ta'sirning (ham protsessual, ham samarali nuqtai nazaridan) tizimlashtirilishiga urinish A.P.Markovning "Milliy madaniyat madaniyatshunoslikning predmeti sifatida" nomli ishida berilgan. Mazkur tadqiqotda modellar tahliliga alohida e'tibor qaratiladi:

1) Akkulturratsiya modeli (manbalari D.Mid, B.Malinovskiynig asarlariga borib taqaladi). U autentik bo'lmagan madaniy tizimlarning o'zaro ta'sirining tarkibi va xususiyatini aniqlaydi yoki dastlab ob'ektiv yoki sub'ektiv tengsizlik holatida bo'lgan o'zaro ta'sirlashuv bir tomonlama xususiyatga ega bo'lganligi uchun bunday holatda u dialogik bo'lmaydi. Odatda bunday munosabatlar jarayonida bir madaniyat "donor" sifatida o'zini dunyoga, va unga nisbatan o'z nuqta'i nazarini, o'zining inson hayoti ma'nosi haqidagi tasavvurini boshqacha deb tanitadi. Boshqasi esa noiloj "resipient" (ya'ni, "donor" madaniyatining elementlarini rad etib yoki moslashtirib baholaydi va tanlaydi) ularni rolini qabul qiladi. Ushbu model doirasidagi muloqot yetakchilik roliga da'vogar madaniyatning madaniy qadriyatlari kengayishi (ekspansiya) shaklini olishi mumkin. Boshqa holatda esa bunday o'zaro ta'sirlashuv ixtiyoriy ravishda boshqa madaniyat elementlarini o'zlashtirib, (shu jumladan,

"boshqa" madaniyatning sub'ektiv ahamiyati tufayli ham) unga taqlid qilish natijasiga olib keladi.

2) "Salbiy yaqinlik" ("konvergensiya") modeli⁷. Ushbu model doirasida autentik bo'lmagan madaniyatlar o'zaro ta'sir ko'rsatishadi. Natijada har biri muqarrar ravishda boshqasining madaniyat elementlarini buzuvchi rolni o'ynashni boshlab, shusiz ham nozik bo'lgan madaniy tizimning yaxlitligini buzadi.

3) Madaniyatlararo muloqot. Ushbu model qadriyatlar almashinuvi bilan xarakterlanadi. Bunda har bir madaniyat "hamkori" bilan o'zini muloqot orqali solishtirib, ularni boshqalardan nima bilan farqlanishi bilan bir qatorda o'z-o'zini anglash maydonida o'zining individualligini ham anglab yetishadi. Bu model o'zaro ta'sirga kirishgan madaniyatlar autentik va bir-biriga o'xshash bo'lgandagina ish beradi. Madaniyatlar o'rtasidagi muloqot har doim ham o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi sub'ektlar uchun ijobiy bo'lavermaydi. Bu muloqot raqobat, konkurensiya, bir tomonlama o'z manfaatini ta'qib qilish, xukmronlikka intilishga urinish kabi ko'rinishlarni olishi mumkin. Tarixdan ma'lumki, bu singari muloqotlar natijasi madaniyatni boyishiga emas, aksincha qabul qiluvchi madaniyatning kuchsizlanishiga olib kelgan. Bunga XIX asrda yevropaliklarning hujumi ostida deyarli yo'q bo'lib ketgan. Okeaniya xalqlarining taqdiri guvohlik berishi mumkin. Bu kabi tarixiy faktlarning turliligi madaniy aloqalarning millatlar va insoniyat hayotidagi roliga kengroq qarashga undaydi. Hamjihatlik madaniy organizm doirasida uning sub'ektlarini yagona yaxlit tizimga birlashtiruvchi element sifatida, shuningdek, undanda kengroq makonda, masalan, turli madaniyatlar vakillarining o'zaro ta'sirlashuv jarayonida ham namoyon bo'lishi ham mumkin. Mumtoz sotsiologiya asoschilaridan biri E.Dyurkgeym hamjihatlikning kishilarni sotsio-madaniy hamjamiyatga birlashtiruvchi mexanik va organik mexanizmlarini ajratib ko'rsatadi. Birinchi mexanizm arxaik jamiyatlarga xos bo'lib, u o'zini tashkil qiluvchi sub'ektlar ijtimoiy funksiyalarining o'xshashligiga asoslanadi. Agar O'zbekiston madaniyatining G'arb madaniyati bilan o'zaro ta'sirlashuv jarayoni yuqorida ko'rib chiqilgan modellar nuqta'i nazaridan tahlil qilinsa mazkur jarayon "Negativ konvergensiya" modeli doirasida ro'y berayotganligini kuzatish mumkin⁸. Taraqqiyotning mazkur bosqichi bir paytlar qutbli dunyo davrida mafkuraviy nuqtai nazardan davlat aholini umuman begona madaniyat, xususan, g'arb madaniyatidan izolyatsiyalagan bosqichga nisbatan mayatnik prinsipida rivojlanmoqda. Madaniyat borasida yuzaga kelgan bu vaziyatni milliy-madaniy inqirozning namoyon bo'la boshlashi sifatida qabul qilish mumkin.

⁷ Тураев Б.Х. Организационно-экономические механизмы регионального туризма. -Т.: Фан, 2009. – С,154.

⁸ Safarov B.Sh. Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari// Monografiya. - Toshkent: Fan va texnologiya,2016. – B.184.

XULOSA

Sotsio-madaniy kommunikatsiyaning tahliliga bunday yondashish to'laqonli to'g'ri hisoblanadi. Zero, madaniyat shunchaki hodisa emas, muayyan makon va zamonda mavjud bo'ladigan voqelikdir⁹. Yaxlit ma'naviy tizim sifatida u bugunni ham, o'tmishni ham qamrab oladigan yirik tarixiy zamonda amal qiladi. O'tmish bilan madaniy muloqot esa eski g'oyalar va muammolarni ijtimoiy ongni yuksaltirish yo'li orqali bugungi kun nuqtai nazaridan tushunish hamda qayta talqin etish vositasi hisoblanadi. Madaniyatlararo kommunikatsiyani tahlil etish bilan bog'liq sotsiologik muammolar doirasi nafaqat chuqur nazariy yondashuvlarni, shuningdek, madaniyatlararo aloqalarni intensivlashtirish jarayonida namoyon bo'ladigan ziddiyatlarni ham taqazo qiladi. Bugungi kundagi jahondagi sotsio-madaniy vaziyat ikki o'zaro zid tendensiyaning keskin kuchayib ketishi bilan tavsiflanadi. Ular o'zaro ziddiyat hosil qilgan holda bir-birlarini to'ldirib zamonaviy taraqqiyotga dinamiklik xususiyatini bermoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Культурное пространство путешествий. 8-10 апреля 2013 г. Тезисы форума, СПб: Центр изучения культуры. 2013.
2. Кравченко А.И. Социология.- М.: «Логос» Екатеринбург, Деловая книга, 2009.
3. Ценность. // Новейший философский словарь. - Мн.: Изд. В.М. Скакун, 2008.
4. Кенжаева Д. Маданиятнинг тарбиявий функцияси ва унинг ижтимоий-фалсафий таҳлили. Фалсафа фанлари номзоди дис автореф. – Т.: 1999.
5. Otamuradov S. Jamiyatni yangilash jarayonida milliy madaniyat va milliy o'zlikni anglash. Fals.fan.doktori uchun yoz.diss.- T.: 1992.
6. B.To'rayev. Tanlangan asarlar: Jild II: Ijtimoiy falsafa, sotsiologiya, milliy g'oya va publitsistika. - T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2015.
7. Madrahimova F. Globalashuv va "ommaviy madaniyat". - Toshkent: Chashma print. 2013.
8. Тураев Б.Х. Организационно-экономические механизмы регионального туризма. -Т.: Фан, 2009. –
9. Safarov B.Sh. Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari, // Monografiya. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.

⁹ To'ychiev B. Jamiyatni demokratlashtirish va siyosiy madaniyat. Monografiya. - Toshkent. Fan, 2011.- B. 284.

10. Saifnazarov I. Ma'naviy barkamollik va siyosiy madaniyat. - Toshkent: Sharq nashriyoti, 2001.
11. To'ychiev B. Jamiyatni demokratlashtirish va siyosiy madaniyat. Monografiya. - Toshkent. Fan, 2011.